



THE PHILOSOPHICAL ESSENCE OF THE DEVELOPMENT OF FOLK MEDICINE IN ANCIENT EGYPT AND BABYLON

L. S. Yuldasheva

PhD in Philosophy (f.f.n.), Associate Professor

Tashkent State Medical University

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: cultural monuments, historical monuments, hanging gardens, pyramids, doctors ASUTU, ASIPU, papyri E.Smid, Ebers, Kahun.

Received: 13.06.25

Accepted: 15.06.25

Published: 17.06.25

Abstract: This article discusses the role and importance of Egyptian and Babylonian medicine in the formation of the ancient Eastern medical system. The discovery of ancient Eastern culture, history, inventions of writing, in particular the earliest of the simplest - pictorial inscriptions, clay tablets, then more complex hieroglyphs, the historical and spiritual heritage of many literary monuments in Egypt and Babylon, including monuments of medical literature, is indicated. Folk medicine in Babylon, including the discovery of the laws of Hammurabi, the formation and development of therapeutic, surgical, dental, and other medical sciences written in Egyptian papyri, in turn, influenced the rise of Western medicine.

QADIMGI MISR VA BOBIL XALQ TABOBATI RIVOJINING FALSAFIY MOHIYATI

L. S. Yuldasheva

ff.n.(PhD), dotsent

Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: madaniy yodgorliklar, tarixiy obidalar, osma bog'lar, piramidalar, ASUTU, ASIPU tabiblari, E. Smid, Ebers, Kaxun papiruslar.

Annotatsiya: Ushbu maqola qadimgi SHarq tibbiyoti tizimining shakllanishida Misr va Bobil tabobatining o'mni va ahamiyati haqida fikr bildirilgan. Qadimgi Shar madaniyati, tarixi, yozuv ixtiroları, xususan dastlabki eng oddiy – rasmlı bitiklar, loy taxtakachlar, keyin murakkabroq ierogliflarning kashf qilinishi, Misr va

Bobildagi ko'pgina adabiy yodgorliklarni, shu jumladan tibbiy adabiyot yodgorliklarining tarixiy-ma'naviy meroslari ko'rsatilgan. Bobildagi xalq tabobati,jumladan Xamurappi qonunlarning kashf etilishi, Misr papiruslarida bitilgan terapevtik, jarroxlik, stomatologik va boshqa tibbiyot ilmining shakllanib, rivoji o'z o'mnida G'arb tibbiyotining yuksalishiga ta'sir etilishi yoritilgan.

ФИЛОСОФСКАЯ СУЩНОСТЬ РАЗВИТИЯ НАРОДНОЙ МЕДИЦИНЫ В ДРЕВНЕМ ЕГИПТЕ И ВАВИЛОНЕ

Л. С. Юлдашева

Кандидат философских наук (ф.ф.н.), доцент

Ташкентский государственный медицинский университет

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: памятники культуры, исторические памятники, висячие сады, пирамиды, врачи АСУТУ, АСИПУ, папирусы Э. Смита, Эберса, Кахуна.

Аннотация: В данной статье рассматривается роль и значение Др.Египетской и Вавилонской народной медицины в формировании древневосточной медицинской системы. Показано древневосточная культура, история, изобретения письменности, в частности, древнейшие наскальные рисунки, глиняные таблички, позднее более сложные иероглифы, историческое и духовное наследие многих литературных памятников в Египте и Вавилоне, включая памятники медицинской литературы. Народная медицина в Вавилоне, включая открытие законов Хаммурапи, формирование и развитие лечения, хирургии, стоматологии и других медицинских позднее более сложные иероглифы, историческое и духовное наследие многих литературных памятников в Египте и Вавилоне, включая памятники медицинской литературы. Народная медицина в Вавилоне, включая открытие законов Хаммурапи, формирование и развитие лечения, хирургии, стоматологии и других медицинских наук, описанных в египетских папирусах, в свою очередь, повлияли на развитие западной медицины.

Kirish. Qadimgi Sharq- insoniyatning madaniyat beshigi hisoblanadi. Kishilik jamiyatining taraqqiyot bosqichini burilish davri bu termachilikdan dehqonchilikka va chorvachilikka o'tishi hisoblanadi. Bu davr insonlarning hayot tarzini, ishlab chiqarish

faoliyatining tabiatini, atrof-muhit haqidagi g'oyalarini tubdan o'zgartirdi. Bu chinakam inqilob hisoblanib, ibtidoiy davr munosabatlarining emirilishi, jamoaning tabaqlanishi va mulkchilik sinflarini yuzaga keltirdi. O'sha paytga kelib turli xildagi hunarmandchilik faoliyati ham paydo bo'ldi. Qishloq xo'jaligidan ajralgan hunarmandchilik, professional hunarmandlar va professional shifokorlarni keltirib chiqdi. Mehnat taqsimotining yuzaga kelishi ish faoliyati unumdorligini oshirdi va bu madaniyat va ilm-fan rivoji uchun ham sharoit yaratib berdi.

Qadimgi SHarq madaniyatining ilg'or yutuqlaridan biri, bu yozuvning ixtirosi, birinchi navbatda eng oddiy – rasmlı bitiklar, loy taxtakachlar, keyin murakkabroq ierogliflarning kashf qilinishidir. Bu esa, o'z navbatida, Qadimgi Sharq xalqlari ko'plab adabiy yodgorliklarni, shu jumladan tibbiy adabiyot yodgorliklarining bizgacha etib kelganligi tarixiy-ma'naviy meros bo'lib qoldi. Jumladan, Misr tibbiy papiruslari, loy taxtakachlari, Xitoy va Hind-Tibet shifokorlarining qo'lyozma kitoblari fikrimizning yorqin dalilidir. SHunday manbalardan tibbiyotning shakllanishi va rivojining keyingi bosqichiga olib borishini kuzatish mumkin. Dastlab ibodatxonalarda ruxoniylarning o'ziga xos sehrli marosim va usullar bilan davolash islari tarixdan ma'lum.

Bobil podshoxligining tarixi miloddan avvalgi 2-ming yillikning boshidan boshlanadi. Qadimgi Bobil jaxon sivilizatsiya rivojiga o'zining matematika, astronomiya, musiqa, arxitektura sohalari bilan birga, tabobat sohasidagi yutuqlari bilan ham munosib hissa qoshganili tarixdan ma'lum. Qadimgi Bobil deganda eng avvalo ko'z o'ngimizdan dunyodagi etti mo'jizaning biri hisoblangan Semiramida osma bog'lari, Bobil minorasi, Xammurapi qonunlari gavdalananadi.

Qadimgi Bobil madaniyati dunyodagi eng qadimgi madaniyatlaridan biridir. Qadimgi Bobil madaniyatini o'rganishda uni nafaqat tarixi balkim, dini, tili, jamiyatni va tabobati ham muxim o'rinn tutadi. Diniy-falsafiy g'oyalarning jamiyatga singib ketishi ularning tabobat ilmiga ham ta'sir qilmasdan qolmagan. Dastlabki tabobat haqidagi ma'lumotlar qoyatosh bitiktoshlar, loyli taxtakachlarda o'z aksini topgan. Podshox Ashurobanapol o'z davrida ilm fan rivojiga katta e'tibor qaratgan va tabobat ilm rivojiga hissa qo'shgandi. Bobildagi taxtakachlarda bitilgan yozuvlarda xalqda og'izdan og'izga o'tib kelgan retseptlar, yuzdan ortiq giyox nomlari, minerallar va dorivor o'simliklarning nomi hamda ular qaysi kasalliklarda ishlatalishi haqida ma'lumotlar berilgan. Qizig'i shundakim, u davrdagi tabiblar asosan kohinlar, ruhoniylar hisoblanib, ular retseptlar va dorivor o'simliklarni avval quillarda sinab ko'rib, natijasiga qarab, keyin saroy ahillaridagi zadagonlarni davolashga kirishilgan. Tabiblik bilimlarni ular doim sir saqlashgan.

Qadimgi Bobilda muomaladan chiqqan SHumer tili asosan retseptlarda va tabobat yozuvlarida saqlanib qolgan bo‘lib, hozirgi zamonaviy tibbiyotdagi retsepler o’lik lotin tiliga o‘xshaydi. 1955 yilda shumerolog, sharqshunos olim Semyuel Kramerning buyuk kashfiyoti loy taxtakachlardagi va tosh bitiklardagi yozuvni tahlil qilishga tuyassar bo‘lib, ko‘pgina mavhum narsalarga oydinlik kiritgan . Jumladan, uning ta’kidlashicha, qadimgi Bobilda kasalxonalar bo‘lmay tabiblar bemorlarni uyiga borib davolashgan. Bunda ular bemorni nafaqat tanasini sinchiklab kuzatishgan, balki kasallikni keltirib chiqarishda uning asabini, ruhiyatini va kundalik turmush darajasini ham kuzatib aniqlashgan. SHundan so’nggina tashhis qo‘yishgan. O’sha davrdagi tabiblarni bunday tashxis qo‘yishlarida ularni nafaqat terapevt balki ruxshunos sifatida xam tasvirlash mumkin. Tabiblarning fikricha, bosh qanday og‘risa qalb ham tana a’zosi sifatida ogrishi mumkinligini ta’kidlab, qalbni ham davolash zarurligini va bu holat tibbiy tafakkurning bir qismi deb hisoblashgan. Davolash jarayonida nafaqat dorivor o‘simliklar, giyohlar, balkim duolar ham muhim o‘rin tutgan va bir butunlik, yaxlit tizimni tashkil etgan. Qadimda Bobilda tabiblarning dastlab ikki toifaga ajratishgan:

1- ASUTU (akkad tilidan olingan bulib tabiblar, hisoblanganlar) ular bugungi kundagi terapevt shifokorlar hisoblanishadi.

2- ASHIPU (akkad tilidan ekzorsistlar bo‘lib, sehr-jodu bilan davolovchilar hisoblanishgan).

Bular orasidagi farq bilimlar darajasi va davolash usullarida ham sezildi.

Sehr jodu bilan davolovchilarnig deyarli mijozlari va obro’-e’tiborlari ham kamroq bo‘lgan. Ular cherkovlarda asosan afsun duolar bilan davolashgan. Bu toifadagi tabiblarning fikricha, tanaga kirib olgan yovuz ruxlar, jinlar kasallikning asosiy sababchilari hisoblanib, barcha muolajalar ana shu jinlarni chiqarishga qaratilgandir. Bunda ular asosan astrologik bashorat asosida folbinlik usullari, har xil tumorlar, duo yozilgzn taxtakachlar, uyning eshigini oldida yaxshi ruxlarning butlari, hayvonlarning haykallarini yasatirib qo‘yish orqali kasallik davolashga harakat qilishardi.

Asutu guruxidagi tabib shifokorlarduolar bilan asosan kasallikning asl sababini aniqlashga va uni davolashga harakat qilishardi. SHifokor-tabiblar ichadigan suvlarga duolar o‘qish bilan bir qatorda har xil o‘simliklarning kurtaklaridan, hayvon yog‘laridan dori vositalar tayyorlab, massaj va suv kompressorlaridan foydalanishgan. SHunisi e’tiborga molikki, Bobil tabobatida ko’katlar, o‘simliklar tushunchasi tabobat tushunchasi bilan aynanlashtirilgan bo‘lib, tabiatning o’zi tabibdir deb qarashlar hukumronlik qilgan.

Shifokor -tabiblar giyohlarni o‘zлari to‘plashar, saqlashar va tayyorlashardi hamda dori-darmonlarni odatda, asal, pivo, suv, sirka bilan qaynatib tayyorlashardi. Tabiblar muolajalari

uchun giyoh-o‘tlardan dorivor vositalar, xayvon azolaridan va mineral moddalardan tabiiy dorivor mahsulotlar tayyorlangan va davolashda foydalanilgan.

Kasalliklar haqidagi ma’lumotlar qoya toshlarga chizilgan suratlar, har xil bitiklardan aniqlangan. Astrologik taqvimlardan, osmon yoritkichlardan kasallikning oldini olish, uni davolanish, operatsiyalarni o’tkazish, tug’ruqlarning muvaffaqiyatli va muvaffaqiyatsiz kunlari belgilangan.

Qadimgi Bobil tabobatida jarroxlik alohida o‘rin egallagan. Tabiblik kasbi yuzaga kelgunga qadar jarroxlik bilan sartaroshlar, temirchilar va boshqa hunarmandlar shug‘ullanishgan. Ularda ustara, temir pichoq, qaychi asboblar bilan ishlash mahorati yuksak bo‘lganligi sabab, har xil jarroxlik yuli bilan davolanadigan. Jumladan ko‘richak, xatna qilish bilan birga ko‘z kataraktasi, bosh miya kabi murakkab operatsiyalarni ham amalga oshirishgan. Jarroxlik operatsiyasi paytida og‘riqni kamaytiruvchi vositalar: opiy, belena, konoplya, mandragora ildizlaridan ishlatilgan.

Lekin bu degani, har qanday sartarosh yoki temirchi tabib degani emas. Chunki o’sha davrda insonlarni himoyalovchi qonunlar mavjud bo‘lgan va unga hamma birdek qat’iy rioya qilingan. Xuddi shunday ahloqiy va tibbiy faoliyat ham qonun bilan qat’iy tartibga solingan. Mashxur Xamurappi qonunlari fikrimiz dalilidir.

Bobilda tibbiyot faoliyati qonun bilan qat’iy tartibga solingan. Qadimgi Mesopotamiyaning eng keng qamrovli yodgorliklaridan biri Bobil imperiyasi shohi Hammurapi nomi bilan mashxur bo‘lgan qonunlardir. (miloddan avvalgi 1750yillarda yaratilgan). Xamurappi mohir siyosatchi va kuchli sarkarda sifatida davlat boshqaruvida qonun ishlab chiqqan, bugungi kungacha Xamurappi Qonunlari nomi bilan tarixda muxrlanib qolgan. Buni yana Bobilning qonunchilik kodeksi deb ham atashgan.

Hammurapi qonunlari dunyoning eng qadimiy qonunlari qatoriga kiradi va Sharqdagi ilk quldorlik davri ijtimoiy munosabatlarini hamda tuzumning huquqiy asoslarini yaqqol aks ettiradi. To’plamning asosiy matni Akkad tilida va mixxat yozuvi ko’rinishida Ashurbanipal kutubxonasidan topilgan bo‘lib u 282 moddadan tashkil topgan. Qonunning 196-214 moddalarida shaxsning hayoti va sog’lig’ini himoya qilishga qaratilgan meyyorlar belgilanib berilgan bo‘lib, unda agar shaxsga qarshi qaratilgan har qanday jinoyatlar yoki tahdidlar bo’lsa qonun asosida javobgarlikka tortilgan. Xamurappi qonunlari jamiyat rivojining barcha sohalariga tegishli bo‘lgan masalalarni o’z ichiga oladi. Masalan, jarroxlik amaliyotini bajarishda har bir ustuning bajarayotgan ishlari qonun asosida nazoratga olinardi. Agar usta-tabib jarroxlik amaliyotini muvaffaqiyatli bajarsa ma’lum bir mukofotlar bilan siylanardi. Aytaylik bo’q’im kasalligini davolash, singan suyakni tuzatish uchun tabibga 5 kumush tanga belgilangan. Bosh

miya va ko'z kasalliklarni davolash murakkab bo'lgani uchun ikki baravar qimmatroq 10 kumush tanga beriladi. Yosh bolalar va quillarda amalga oshirilgan jarroxlik uchun esa arzonroq berilar edi. Ammo jarroxlik amaliyoti muvaffaqiyatsizlik bilan amalga oshirilsa, kimga qilinishidan qat'iy nazar ustaning qo'li chopilardi. Bundan ma'lum bo'ladiki, jarrox tabiblarning bo'yniga juda og'ir ma'suliyat yuki qo'yilgandir. SHunga qarab ustalar kasallarni avval sinchiklovlik bilan tekshirib, tashxis qo'yib, undan keyin amaliyotdan o'tish yoki o'ta olmasligiga qarab bajarishardi. Eng muhimi shundakim, jarroxlik amaliyoti muvaffaqiyatlari o'tishi uchun albatta duolar o'qilar edi. Bu amaliyotning asosini tashkil etadi. Kasalliklarni oldini olish va yomon yuqimli kasalliklar butun xalq orasida tarqalib ketmaslik uchun bemorlar shahardan, yashash joylaridan quvilar edilar. Bu qonunlashtirilgan ham edi.

Bobilda diniy qarashlar hukumronlik qilgan davrida anatomiq bilimlar etarli darajada rivojlanmagan edi, chunki inson tanasi bilan tanishish, o'rganishga imkon yo'q edi. Xattoki, o'lgan odamning murdasini ham yorib o'rganish taqiqlangan edi. Oz bo'lsada to'plangan tajriba, bilim va ko'nikmalar o'sha vaqtarda bo'lib turadigan urushlar natijasida yarador bo'lgan insonlarni davolash hamda Hudolar uchun qurbanlikka keltirilgan hayvonlar so'yilganida a'zolarining joylashuvini kuzatish orqaligina to'plangan bilimlardir.

Inson hayotining asosini qon tashkil etadi deb, hisoblagan Bobil tabiblari uni 2 xil bo'lishini ta'kidlashgan. Ya'ni toza kunduzgi (arterial) va kechki (venoz) qon tomiriga ajratishgan. Tabiblarning fikricha, aynan qon va organizmdagi boshqa suyuqliklarning doimiy sirkulyar harakatlari insonni sog'lom bo'lishidan darak beradi.

Qadimgi Bobilda asosan kasalliklarni davolashning quyidagi yo'nalishlari va usullari bo'lgan:

-eng keng tarqalgan yo'li bu -sehr duolar o'qish, astrologik ma'lumotlar, har xil tumor-amuletlar bilan kasalliklarni davolash hisoblanadi;

-yovuz ruhning qiyofasini yo'q qilish yo'li bilan davolashda tabiblar loy, un, mum va ayrim holatlarda daraxt po'stloqlaridan har xil qo'g'irchoq yoki biror hayvon shakldagi o'yinchoq yasab so'ng ularni olovda yoqishar, suvda cho'ktirishar, mozorlarga borib ko'mib tashlashardi. Bu jarayon orqali tabiblar organizmdagi yovuz ruh va jinlarni haydash yo'llari bilan organizmni tozalab tashlash hamda bemor-kasalliklarni davolashar, tuzatishar edilar. Bu bilan tabiblar bemorda kasallikni engishi mumkinligiga ishonch bildirar edi.

Yuqorilardan xulosa qilib aytish mumkinki, qadimgi Bobilda tabobat ilmining rivojlanish darajasi nechog'lik past ekanligini va ruhoniy-tabiblar asosan sehr jodu, yovuz ruh va jinlarni haydash yo'llari bilan organizmni tozalab bemor-kasalliklarni davolar edilar. Koxin-tabiblar

o‘zlarini iltijolar bilan o’qigan duolari va davo yo’lida keltirilgan qurbanliklari orqali Xudolardan rahm so‘rab, bemorda yo‘qotilgan sog‘liqni tiklashga harakat qilishardi.

Yana muhim jihatni bu Xamurappi qonunlari bo’lib ular jamiyatning hamma sohalarini qamrab olmasa, mukammal bo’imasada lekin o’sha davrning eng muhim huquqiy xujjati hisoblanardi. Qadimgi Bobil podishoxi nomi bilan bog’liq bo’lgan Xamurappi qonunlari o’z davrining huquqiy qarashlarini va huquqiy tizimning juda katta yodgorligi sifatida muhim, qimmatli manba sifatida bizgacha etib kelgandir.

Dunyodagi eng mashhur Nil daryosining quyi oqimidagi voydiy qadimgi Misr sivilizatsiyasining markazi hisoblangan. Qadimgi Misr jahon madaniyatindan chuqur iz qoldirgan insoniyat tarixidagi eng qadimgi davlatlardan biridir.

Qadimgi Misr Astronomiya, matematika, geometriya, geografiya kabi ilm-fan sohalari, san’ati va qurilish-arxitekturasi bilan bir qatorida tabobatga tegishli bilm doirasida erishgan ajoyib yutuqlari bilan mashur davlatdir.

Qadimgi Misr tabobati haqidagi malumotlar, xalq tarixi, dini, madaniyati, bilan birga, piramidalar hamda boshqa qurilishlardagi o’yib yozilgan ieroglyph yozuvlari va qoya-toshlar, g’orlardagi bitiklarida saqlanib bizga etib kelgan.

Mashhur tarixchi Geradot sharq mamlakatlari bo’ylab qilgan sayohatidan ta’kidlashicha, Qadimgi Misr (mil.av. uchminginchi yildan beshyuzinchi yilgacha bo’lgan davrlarda)— bu zamonaviy tibbiyotning eng birinchi tonglari paydo bo’lgan davlatdir. U erda stomatologiya, oddiy jarrohlik, ichki va teri kasalliklari, akusherlik hamda turli xil tibbiy farmakopeyalardan foydalanish bo’yicha keng tushunchalarga ega bo’lishgan .

Misr tabobati haqidagi malumotlar, uning xalq madaniyati bilan birga, piramidalardagi va boshqa qurilishlardagi ieroglyph yozuvlar hisoblanadi. Qadimgi Misr xalq tabobatida sog’liq va kasallik insonlarning koinot, tabiat, hayvonlar hamda yaxshi va yomon ruxlarga bo’lgan munosabat orqali dixotomik ajratilgandir.

Misr tabobatini butun jahonga mashhur qilgan bir qancha papiruslarida o’z aksini topgan turli xil retseptlar to’plamidir. Bu retseptlar kasalliklarning tariflari, belgi-simptomlar hamda kasallik sabablarini aniqlovchi, davolash usullari yoritilgan tabobat haqidagi dastlabki ma’lumotlar bitilgan ilk manbalari hisoblanadi. Eng qadimiysi Kaxun papiruslari hisoblanib, ular ma’muriy-huquqiy, matematik va tibbiyot mavz ulariga doir muhokama qiladigan qadimgi misrlik matnlari to’plamidir.

Kaxun papiruslarining ko’pgina parchalari 1889 yildan London universitet kollejida saqlanmoqda. Bu eng qadimiy va katta kolleksiyalı papiruslar to’plami hisoblanadi. Papirus matnlarining aksariyati eramizdan avvalgi 1825 yillar atrofida Amenemhet III podshoxliqi

davrigacha bo'lgan vaqtida bitilgan bo'lib. Qadimgi Misrning o'rta podshoxlik davrini qamrab oladi. Papiruslarda Senusret II davrida yuritilgan davlat ish-hujjatlari, ayollarning ginekologik masalalsriga oid ma'lumotlar, matematik matnlar to'plami, veterinariya va boshqa turli xil masalalarga tegishli ma'lumotlar bitilgan.

Kaxun papiruslari matni 34 bo'limdan iborat bo'lib, har bir bo'lim ma'lum bir kasallikning tashxis va davolash muammolariga bag'ishlangandir. Papiruslarda jarroxlik yo'llisiz asosan, tananing jaroxat qismiga malham qo'yish yoki surtmalar bilan davolash usullari ko'rsatilgan. Bachadon ba'zan tananing boshqa a'zolarida namoyon bo'lgan shikoyatlar manbai sifatida davolanilardi.

1362 yilda topilgan Edvin Smit papiruslari tibbiy kitoblar qatoridagi eng mashxuri hisoblangan. Ingiliz sharqshunos arxeolog olim E.Smit qadimgi papiruslarni tahlil qilib, kitob shaklida yozib qoldirganligi sabab uning nomi bilan atalgandir. Bu yozma bitiklar jarroxlik papiruslari nomi bilan ham ataladi va Misr tabobatining ilk manbalaridan biri hisoblanadi. E.Smit papiruslar asosini harbiy jarroxlik haqidagi traktat tashkil etib, unda 48 xil jaroxatlar, suyak sinishlar, pay cho'zilishlai, o'simtalar va ularni davolash yo'lari haqida ma'lumotlar yozilgan. Bu papiruslar oxiriga etmagan, tugallanmagan bo'lsada, muhum hujjat hisoblangan, chunki unda birinchi marta qadimgi misrliklarning odam anatomiyasi, yuqimli kasalliklarni davolash, ularni oldini olish, profilaktikasi va umumiy tibbiyat haqidagi ma'lumotlar ko'rsatilgandir. E.Smit papiruslarda dastlabki jarohatlar, jarroxlik kasalliklari haqida ma'lumot hamda qoya -toshlar va g'orlarda qo'l-oyoqlari singan-chiqqan operatsiyalarning tasvirlangan rasmlari saqlangan. O'sha davrda operatsiyalardan keyingi bog'lamlar, amputatsiya, xatna qilish amallari keng qo'llanilgan. Ushbu hujjatning muhimligi shundakim, unda misr tabobati sehr-jodu va o't-o'lanlar bilan davolash emas, balkim ilmiy an'anaviy tabobatga asoslanganlidigadir.

Edwin Smit papiruslari bilan bir qatorda Ebers papiruslari qadimiy va mashhur bo'lib, u er.av.1450-1350y. Fivda topilgan va Lipesk muzeyida saqlangan. Lekin 2-jaxon urishi davrida bombardimonlar natijasida ko'pgina qismi talofat ko'rgan. Hozirda qolgan qismlari qayta tiklanib Lipesk universiteti muzeyida saqlanadi. Bu matnlarda turli xil kasalliklar, ularning belgilari, alomatlari, tashxisi hamda davolash usullari ko'rsatilgan.

Ebers papiruslarida 900 dan ortiq turli retsetlar mavjud bo'lib, unda oshqozon-ichak trakti, nafas olish va yurak-qon tomirlar kasalliklari, qulooq-eshitish, ko'rish-oftolmologiya kasalliklari, turli yuqumli hamda gelmentlarni davolash kabi kasalliklar haqida ma'lumotlar yozilgan.

Papiruslarda Misr tabiblarining malhamlar, plasterlar, mikstura, huknalar va boshqa davolovchi usullardan foydalanishgani, dori vositalarini tayyorlashda tabiblar sut, asal, pivo, piyoz, sarimsoq piyoz, alloy, uzum, anor mevalar, muqaddas suv buloqlaridan, o'simlik yog'lari

va og'riq qoldiruvchi o'simliklar, soda,, oltingugurt, temir, tuproq-loy, alabaster, selitra kabi mineral moddalardan hamda ayrim hayvonlarning tana a'zolari asos qilib olingani egiptolog olimlarning radidotlaridan ma'lum. Ba'zi retseptlarda 40ga yaqin komponentlarni o'z ichiga oladi, ulardan ko'pchiligi hali aniqlanmaganligi uchun ularni o'rganish muammo bo'lgan.

Papiruslarda yana travmatologiya, parazitlarga qarshi kurash, shuningdek, ginekologiya va kontratseptsiya uchun dori-darmonlarni davolash va tayyorlash tavsifi mavjud. Alovida ginekologiyaga doir muammolar, jarroxlik kasalliklar, o'simtalar, travmotologik singan-chiqqan, pay cho'zilish kasalliklari, tish va ogiz bo'shliq'1 kasalliklari haqida matnlarda ko'rsatilgan. Qisqa bo'lsa ham asab-nerv kasalliklari, uni xar xil ko'rinish va turlari haqida ham ma'lumotlar bor.

Georg Eburs papiruslar davolash jarayonida turli xildagi dorilar, ularning qaysi kasalliklarda va qanday qo'llanishi haqida ma'lumotlar ham ko'rsatib o'tilgan. Dorilaarni qo'llashda yil fasllari, iqlim sharoitlari, bemorning yoshi, kasallikning engil-og'irligi kabi belgilar hisobga olingan, tokim dori ta'sirining shu omillarga bog'liqligi ko'rsatilgan. Misr farmokopeyasida judaym ko'p dorivor o'simliklar mavjud bo'lib, tabibning mohirligi bemorga mos hamda kerakli dorini tanlay bilishi bilan belgilanadi.

Papiruslarda kosmetologiya masalalariga bag'ishlangan yozuvlar ham bo'lgan. Jumladan: ajinlarni tekishlash, soch o'sishni yaxshilash, parvarishlash, so'gal va borodavkalarni kuydirish, yuz terisini oqartirish, xushro'y ko'rsatish kabi retseptlar berilgan. Ayollar parik sochlarni ko'proq taqishari bir tomondan issiqdan saqlaydigan bosh kiyim o'rnida bo'lsa, yana boshqa tomoni bitlab ketishdan himoya hisoblanardi.

Ebers papiruslarida stomatologiya sohasida ham ma'lumotlar berilgan bo'lib, og'z bo'shlig'ini parvarishlash, milklarni va tishlarni davolash, tishlarni olishga doir 11ta retsept yozuvlari keltirilgan. SHundan Ebers papiruslari keng qamrovli bo'lganligi sabab qadimgi Misr tabobati san'at hisoblanib, u shunday bo'linib ketganki, har bir tabib faqat bitta kasallikni davolaydi. SHuning uchun hamma joyda tabiblar ko'p: ba'zilari ko'zlarni, boshqalari tishlarni, oshqozon, ichki kasalliklari va kasalliklarni davolovchilarga bo'lingan. Shundan, ko'z jarroxi, oshqozon, yurak jarroxlari hamda tish davolovchi (plomba qo'yadigan) jarrox kabi tabiblar ko'p bo'lib ular katta obro'-etiborga ega bo'lganlar.

Yana bir tibbiy manba- Imxotepning shifokor sifatidagi faoliyati hisoblanib, u qadimgi Misr fir'auni-Joser hukumronligi davriga to'g'ri keladi. Uni tabiblarning maxsus himoyachi-Xudosi deb hisoblashadi. O'z davrining mo'jizakor shifokori bo'lishi bilan birga, u zo'r arxitektor, astronom va yozuvchi hamdir. Arxitektor sifatida kesilgn toshdanlardan 6 qavatli, pog'onali Joser piramidasini uning loyihasi asosida qurilgan. Birinchi marta qurilgan ushbu

piramidaning balandligi 60 metrga etadi. Uning tomonidan o'ylab topilgan huknalar nafaqat davolash jarayonida balkim ichaklarni tozalash maqsadida ham keng qo'llanilib, foydalanilgan. Impxotep faoliyati davrida organizmdan chiqarib tashlash uchun, qayt qildiruvchi, ich keltiruvchi, peshob haydovchi kabi vositalardan foydalanilar edi, tabiy vosita sifatidgia huknalar ham yo'lga qo'yildi. Imxotep vafotidan keyin xalq uni Xudo darajasida ilohiyashtirib, Sias va Fiva shaharlarida hashamatli ibodatxonalar qurishgan.

Mumiyolash jarayoni Qadimgi Misr tabobati tarixiga katta hissa qo'shdi. Ming yillar davomida turli xil ixtiro qilingan antiseptiklar inson tanasini saqlanish darajasidagi noyob san'atini yaratishga imkon berdi. Qadimgi Misr podshoxlari, kohinlar, oliy tabaqa zadagonlari o'zlarini abadiylashtirish maqsadida miyolash jarayonini amalga oshirishgan. Bunday jarayon juda katta mablag' talab qilinganligi sabab, oddiy xalq, qullar bunday imkoniyatga ega bo'lomaganlar. Mumiyolash jarayoni aslida diniy maqsadda amalga oshirilgan bo'lib, podishox va zadogonlarni o'limidan keyin jasadi parchalanib ketishini oldini olish, tanasini saqlab qo'yish va ularni abadiy ilohiyashtirish kerak bo'lgan. Shu maqsadda mumiyolash jarayoni yo'l'ga qo'yilgan, bu jarayon orqali esa, misrliklar inson tanasining alohida tana a'zolari, ularning joylashuvi va funksiyalari haqida ma'lumotga ega bo'ldilar. Vaqt o'tishi bilan mumiyolash jarayoni tibbiyotning yanada rivojlanishiga hamda bir qancha sohalarini yuzaga kelishiga sabab bo'lgan. Anatomiya, fiziologiya, patologiya, hirurgiya kabi sohalar shular jumlasidandir.

Iinson organizimidagi kasallikkarning turlari, kelib chiqish sabablari va ularni tashxislash hamda davolashnda ushbu fanlarning o'rni beqiyos bo'lgan. Ushbu fanlar orqali qadimgi Misrda keng tarqalgan tuburkulyoz, buyrak va o't pufagidagi tosh kasalliklari, oshqozon-ichak trakti, bo'g'im yassitovon, o'tkir yuqumli, teri-tanosil, kabi keng tarqalganligi kasallikkarni haqida ma'lumotlarga ega bo'lishgan.

Eng qizig'i, tarixchi olim Geradotning ta'kidicha, Misrda tabobat ilmi keng tarqalgan bo'lsada, lekin xar bir kasallikni ma'lum bir tabib davolardi. Bir bemorning o'pkasini bir tabib qarasa, uning buyragini boshqa tabib yoki tishi bilan bog'liq kasallikni yana bir boshqa tabib tashxis qo'yib, davolar edi. Har bir inson tanasidagi kasallikkarni o'z tabibi ko'rib davolashi zarur edi. Tishni davolashda hozirgi tibbiyot tili bilan aytganda- briketlarni, o'sha davrda misrliklar tilla metallarni bir-biriga maxkam qilib joylashtirish orqali davolashgan. Yana qadimgi Misr manbalaridagi ma'lumotlarga ko'ra tishlarning emirilishi, ularni olib tashlash, tishdag'i toshlarni tozalash, jag'-suyalarini dislokatsiyalash hamda og'iz bo'shlig'i bilan bog'liq kasalliklar davolanganligi ayon bo'lgan.

Misr tabobatida har qanday jarroxlilik jarayonida ishlatiladigan asboblar skalpel, qaychi, qo'y terisidan yoki o'simlik tolalaridan tayyorlangan –ketgut iplaridan foydalanilganligi mashxur

papiruslar-yozma manbalarda keltirilgan. Bu asboblarning ayrimlari mukammlashtirilib, bugungi kunda ham jarroxlik sharoitlarida ishlatalishi bilan ahamiyatlidir.

Qadimgi Misr tabiblari bobilliklar qatorida ibodatxona va uning qoshida qurilgan maktab-kasalxonalarida davolashlardi. Ushbu davolash jarayonlari ibodatxona-maktablarida tahlil olayotgan kohin-tabiblar uchun amaliyot hisoblanardi. Maktablarda dastlab, diniy bilimlar, ya'ni sexr-duolari yod oldirilib mukammal bilganchargina, tabobat ilmi bilan shug'ullanar edilar. Bu maktablarda chet elliklar, ayniqsa, yunonliklar tahlil olar edi.

SHundan SHarq ilmi G'arbni rivojlanishiga asos bo'lgandir. Jumladan, Misr tabobati yahudiy, yunon va arablar tabobatini rivojiga katta ta'sir ko'rsatganligi yqoridagi fiklarimizning yorqin dalili hisoblanadi.

Misr tabobatining yana bir muhim jihatni, o'sha davrlarda ayollarni faqat ayol-tabib va erkak bemorlarni kohin-tabiblar davolashi mumkin hisoblanardi. Ayollarning homilador bo'lganligini aniqlash usuli bugungi kunda zamonaviy tibbiyotda ham qo'llanilishi an'anaviy tabobatdan dalildi. Misrliklar o'zini homilador ekanligini juda oson yo'l bilan aniqlashar, yani buning uchun ayol erga ikkita urug'qadashi: bug'doy va tariq ekishi kerak bo'lgan. Bu urug'larni o'z peshobi bilan sug'orishi zarurdir. Agar urug'lar nish urib o'sib chiqsa, bug'doy o'g'il farzand, tariq esa, qiz farzand belgisi hisoblanadi. Bugungi tibbiyotda ham homilani erta bilish uchun mahsus testlar mavjud bo'lib, aynan ayolning peshobi orqali aniqlanadi. Ayollardagi matka va ko'krak bezi saraton kasalliklarini davolash mumkin emas edi.

Qadimgi Misr tabobatining farmakopiyasida keng ko'lamli spektr sifatida davolash usullarida minerallar, metallar, hayvonot va o'simliklardan asosiy manba sifatida foydalanishgan. Akatsiya, anis, qora smorodina, koriandr, shafran va boshqa o'simliklardan hamda bodring, qora sedana, anjur, qovoq, piyoz, sarimsoq piyoz, shunga o'xshash mevasabzavotlardan malham, shifobaxsh-dorilar tayyorlashgan. Bu dorilar organizmni har xil shlak va toksinlardan tozalaga yordam bergen. Suv, ayron, pivolar organizmda transport vazifasini ham bajargan. O'simliklarni ildizidan tortib mevasigacha foydali hisoblashganligi uchun ham qadimdan tabiatning o'zi tabibdir degan ibora ayni haqiqatdir.

Misr tabobatida, asal alohida o'rinn tutgan. Uni nafaqat davolovchi balki profilaktika dorisi deb ham hisoblangan. Bundan tashqari an'anaviy tabobat safatida misrliklar bemorlarni davolashda qon chiqarish, qon olish hamda zuluklardan keng foydalanishgan. Bu jarayon asosan qonni tozalash, qon bosimini tushirishda foydali edi. Qonni tozalash orqali insoning yuzi tiniqlashib, go'zallashishi o'sha darning kosmetologiyasi hisoblangan.

Xulosa. Yuqorida aytilganlardan xulosa qiladigan bo'lsak:

- Qadimgi Misr xalq tabobati asosan sexr-jodu va diniy qarashlar asosida shakllangan va davolash jarayonida o’z ta’sirini ko’rsatgan;

- Tashxislash va davolash jarayonida avval tanaga kirgan “ibislarni haydash va undan so‘ng tabiiy giyohlar, shifobaxsh-dorivor o‘simpliklar, hayvon yog’lari va a’zolarining qismlari, mineral moddalardan foydalanilgan;

- Xukna, qon olish, massaj va igna qo’yish kabi tabiiy usullardan davolash jarayonida qo’llanilgan:

- Misr tabobati anatomiya, xirurgiya, ginekologiya, stomatologiya kabi yangi sohalarini kash etishi hamda davolash jarayonida qo’llaniladigan jarroxlik asbob-uskunalarini yaratilishi zamонавиъ тиббиётда кatta аhamiyatga egadir. Eng asosiysi, bemorni salomatligini tiklanishida tana va ruxning birligi, uning faolligi konsepsiysi qadimgi Misr tabobati nazariyasining asosini tashkil etadi.

Misr xalq tabobatining asosida diniy qarashlar hukmron bo‘lib, unda ruxning abadiyligi haqidagi g‘oya ilgari surilgan. Tananing abadiyligi esa, faqat mumiyolash jarayoni orqali saqlanib qolinar edi. Tabiblar o’z mehnatlari orqali mukofotlanib, xalq e’tibori va e’tirofiga muyassar bo’lsalar, jazo choralar sifatida barmoqlari, qo’llari kesilib, ko’zlari oyilar edi. SHundan tajribalaridan kelib chiqqan holda bemorlarni davolab bo’ladigan va davolab bo’lmaydigan turlariga qarab ish ko’rishardi va buni adolatli deb hisoblashardi. Yuqorida keltirilgan yozma manba va ma’lumotlardan qadimgi Misr xalq tabobati jahon madaniyati va sivilizatsiyasiga o‘zining munosib hissasini qo’shganligini bilishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. M.Hamraev. O’zbek xalq tabobati nazariya asoslari -T.-O’zbekiston xalq akademiyasi. 2012
 2. Q.Qodirov Tibbiyat tarixi.
 3. Хрусталев Ю.М. Философия науки и медицины: учебник. – М.: ГЭОТАРМедиа, 2009.
 4. С. Н. Крамер История начинается в Шумере -М : Наука. 1965 71с.
 5. Хрестоматия по истории медицины. Учебное пособие / Под ред. Проф. Д.А. Балалыкина./- М.: Литерра, 2012.
 6. Медицина Древнего мира.
- http://intranet.tdmu.edu.ua/data/kafedra/internal/sus_dusct/ptn.htm